

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/30.01.2020.Ped.26.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**TASHMATOVA KAMOLA ABDURASHIDOVNA**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARIDA NOMODDIY  
MADANIY MEROSGA OID TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISH  
(“Tarbiya” fani misolida)**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Tashmatova Kamola Abdurashidovna**

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirish ("Tarbiya" fani misolida) ..... 3

**Ташматова Камола Абдурашидовна**

Развитие понятий учащихся средних общеобразовательных школ о нематериальном культурном наследии (На примере предмета "Воспитание") ..... 21

**Tashmatova Kamola Abdurashidovna**

Developing the concepts of intangible cultural heritage among secondary school pupils (on the example of "Education" subject) ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/30.01.2020.Ped.26.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**TASHMATOVA KAMOLA ABDURASHIDOVNA**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARIDA NOMODDIY  
MADANIY MEROSGA OID TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISH  
(“Tarbiya” fani misolida)**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2PhD/Ped1001 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Isakulova Nilufar Janikulovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Haydarov Mamat Eshqulovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Azizova Qizlarxon Mashrabovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020. Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-71, e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2023-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**B.S.Abdullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi  
ped. fan. dok., professor

**R.G.Isyanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi  
ped. fan. nom., dotsent

**D.B.Yakubjanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi seminar raisi  
ped. fan. dok., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim muassasalarida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. YUNESKO “nomoddiy madaniy meros” deb nomlanuvchi tushunchalarni muhofaza qilish usullarini yaratish, ma'lum bir xalqqa tegishli va madaniy jamoada qo'llanib kelayotgan nomoddiy madaniy merosni tasniflash, an'anaviy madaniyat va folklori muhofaza qilish, milliy tizimlar tomonidan nomoddiy madaniy merosni o'zida saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilarni rasman tan olish va ular tomonidan ushbu merosning kelgusi avlodga yetkazilishiga ko'maklashish bo'yicha amaliy loyihalarni tatbiq etishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida rasmiy va norasmiy ta'limga nomoddiy madaniy merosni tatbiq qilish, nomoddiy madaniy merosni ta'limga integratsiyalash, milliy-madaniy va ma'naviy hamda moddiy boyliklarni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, barcha tegishli fanlar bo'yicha nomoddiy madaniy merosni o'qitish va o'rganish orqali o'quvchilarning madaniy merosni saqlash bo'yicha egallagan bilim, intellektual ko'nikma va kompetensiyalari darajasini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda nomoddiy madaniy merosni saqlash, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar, an'analarni tiklash va yoshlar tarbiyasida ulardan unumli foydalanishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. “...Shu ma'noda, Yangi O'zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir”<sup>1</sup>. Natijada, nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi 222-son “2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida” Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylannoqda. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – B. 92.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-marifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda nomoddiy madaniy merosning ayrim shakllariga oid tarixiy rivojlanish bosqichlari F.Rahmonov, B.Shodiyev, N.Safarova, S.Ollaberganova, M.Jo‘rayev, S.Jumayeva, B.Suvankulov, S.Mirzayeva, M.Rahmonova, K.Qodirov, O‘.Toshmatov, N.Isakulova, J.Mamatqosimov, J.Eshonqulov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.Seybert, M.Ivanova, J.Chjao, V.Fomchenkova, O.Markova, G.Aliyeva va boshqalar nomoddiy madaniy merosni saqlash, muhofaza qilishga oid tadqiqotlar olib borgan.

Yevropa va Osiyo mamlakatlarida H.Kim, G.Nicholas, C.Bell, R.Coombe, J.Welch, B.Noble, J.Anderson, K.Bannister, J.Watkins, Ch.Graber, K.Kuprecht, J.Lai, S.Frankel, D.Gervais kabi olimlar nomoddiy madaniy merosning ta‘lim tizimidagi ayrim turlariga oid tadqiqotlar olib borgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining A-1-011 raqamli “Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarini ta‘lim tizimiga tatbiq etish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2015-2017-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish mezonini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini “Tarbiya” fani orqali rivojlantirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Andijon viloyati Paxtaobod tumanidagi 16-son umumta‘lim maktabi, Sirdaryo viloyati Mirazobod tumanidagi 5-son umumta‘lim maktabi, Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanidagi 7-son umumta‘lim maktablaridan jami 1120 nafar o‘quvchi jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishning shakl, metod va

vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida umumiy oʻrta taʼlim maktablaridagi ilgʻor pedagogik tajribalarni oʻrganish, DTS, oʻquv rejalari, darslik va oʻquv-metodik qoʻllanmalarni oʻrganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat, test); pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish imkoniyatlari oʻzlikni namoyon qilishning ogʻzaki shakl va anʼanalari, ijrochilik sanʼati durdonalari, jamiyatning urf-odat va marosimlari, anʼanaviy hunarmandchilik bilan bogʻliq bilim va koʻnikmalarini rivojlantirish, tabiat va koinotga oid bilimlarni hamda manbashunoslik turlarini didaktik paradigmalarga mos ravishda mazmunli uygʻunlashtirish asosida aniqlangan;

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish texnologiyalari etnografik-lingvistik manbalarni ommalashtirish, etnofolkloristik tarixiy afsonalar genezisini xronologik, geografik, struktural tasniflash hamda miplarni turlarga boʻlishning didaktik-natijador infratuzilmasini bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish modeli oila-mahalla hamkorligini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan “Tarbiya” fanida “Keys-stadi” texnologiyasi va manbashunoslik turlarini integrativ oʻqitishga intensiv ustuvorlik berish hamda kreativ taʼlim va shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini mazmunli uygʻunlashtirish asosida takomillashtirilgan;

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish mezonlari shaxsning aqliy va jismoniy kamoloti mutanosibligini izchil taʼminlash, nomoddiy madaniy merosning mavjud shakllarini taʼlimiy-didaktik prinsiplar talablariga effektiv moslashtirish hamda konseptual tushunchalar tipologiyasini aniqlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalari oila va mahalla hamkorligi orqali rivojlantirilgan;

“Oʻzbekiston nomoddiy madaniy merosi” nomli oʻquv qoʻllanma nashr etilgan;

“Oʻquvchilarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirish” nomli multimediali elektron taʼlimiy dastur yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** pedagogikaning asosiy tamoyillariga asoslanganligi, unda qoʻllangan yondashuv, usul va nazariy maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olingani, muammo yuzasidan respublikamiz va xorijiy olimlarning fikr-mulohaza hamda gʻoyalariga tayanilgani, pedagogik tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi matematik-statistika metodlari vositasida asoslangani, tadqiqot maqsad va vazifalarining adekvatligi, xulosa, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining

ilmiy ahamiyati umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish imkoniyatlari, manbashunoslik turlarini didaktik paradigmalarga mos ravishda mazmunli uygʻunlashtirish, etnografik-lingvistik manbalarni ommalashtirish, etnofolkloristik tarixiy afsonalar genezisini xronologik, geografik, struktural tasniflash hamda miflarni turlarga boʻlishning didaktik-natijador infratuzilmasini bosqichma-bosqich shakllantirish, oila-mahalla hamkorligini rivojlantirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim muassasalarida darslik, oʻquv qoʻllanma, oʻquv dasturlarini ishlab chiqishda umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish modeli, multimediali elektron taʼlimiy dastur, rivojlantirish mezonlari va koʻrsatkichlaridan foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish imkoniyatlarini oʻzlikni namoyon qilishning ogʻzaki shakl va anʼanalari, ijrochilik sanʼati durdonalari, jamiyatning urf-odat va marosimlari, anʼanaviy hunarmandchilik bilan bogʻliq bilim va koʻnikmalarini rivojlantirish, tabiat va koinotga oid bilimlar hamda manbashunoslik turlarini didaktik paradigmalarga mos ravishda mazmunli uygʻunlashtirish asosida aniqlashga oid takliflar “Oʻzbekiston nomoddiy madaniy merosi” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrugʻiga asosan berilgan 166-354 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish texnologiyalarini etnografik-lingvistik manbalarni ommalashtirish, etnofolkloristik tarixiy afsonalar genezisini xronologik, geografik, struktural tasniflash hamda miflarni turlarga boʻlishning didaktik-natijador infratuzilmasini bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Oʻzbekiston nomoddiy madaniy merosi” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrugʻiga asosan berilgan 166-354 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish modelini oila-mahalla hamkorligini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan “Tarbiya” fanida “Keys-stadi” texnologiyasi va manbashunoslik turlarini integrativ oʻqitishga intensiv ustuvorlik berish hamda kreativ taʼlim va shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini mazmunli uygʻunlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Oʻzbekiston nomoddiy madaniy merosi” nomli oʻquv qoʻllanmada foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrugʻiga asosan berilgan 166-354



raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, “O‘quvchilarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirish” nomli multimediali elektron ta’limiy dastur ishlab chiqilgan;

umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish mezonlarini shaxsning aqliy va jismoniy kamoloti mutanosibligini izchil ta’minlash, nomoddiy madaniy merosning mavjud shakllarini ta’limiy-didaktik prinsiplar talablariga effektiv moslashtirish hamda konseptual tushunchalar tipologiyasini tahliliy aniqlash asosida takomillashtirishga oid takliflar “O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrug‘iga asosan berilgan 166-354 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, nomoddiy madaniy merosning beshta shakli orqali konseptual tushunchalar tipologiyasi aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 132 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, ob’ekti, predmeti, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari hamda ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishda manbashunoslik turlaridan foydalanishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida manbashunoslik turlarining o‘ziga xos xususiyatlari, nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishda oila va mahalla hamkorligi yoritilgan.

YUNESKO tomonidan qabul qilingan Konvensiya (2003-y) O‘zbekistonda ratifikatsiya qilinganidan so‘ng nomoddiy madaniy merosning beshta yo‘nalishi (o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki shakl va an’analari, ijro san’ati, jamiyatning urf-

odatlari, marosimlari va bayramlari, an'anaviy hunarmandchilikka oid bilim va ko'nikmalar hamda tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlar) bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi.

Nomoddiy madaniy merosning beshta yo'nalishi manbashunoslikning turlari bilan bevosita bog'liq holda o'rganishni taqozo qiladi. O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari manbashunoslikning xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma manbalar bilan bog'liq hisoblanadi. Ijro san'ati manbashunoslikning etnografik manbalar turi bilan bog'langan. Urf-odat, marosim va bayramlar, mo'jaz rasm va miniatyuralar, etnografik manbalar bilan bog'liqligini kuzatish mumkin. An'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilimlar moddiy ashyoviy manbalar bilan, tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalar esa lingvistik manbalar bilan bog'liq holda o'rganilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Etnografik manbalar, qurol va buyumlarda aks etgan naqsh va bezaklarning ramziy ma'nolari insonlarning tabiat va koinotga oid bilimlari natijasi hisoblanadi. Etnografik manbalarning xalq, qabila va urug' nomlarining kelib chiqishi bilan bog'liq afsona va rivoyatlar o'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari bilan bevosita bog'lanadi. Og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan urf-odat va an'alar turi esa nomoddiy madaniy merosning urf-odat, marosim va bayramlar shakli bilan bevosita aloqador hisoblanadi.

Lingvistik manbalar esa M.Abdulmajidov va G.Fuzailovalar tomonidan "Manbashunoslik" darsligida tadqiq etilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lingvistik manbalar deb tilimizdagi, aniqrog'i uning leksik – so'z boyligi tarkibidagi uzoq o'tmishdan qolgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy va yuridik atamalar nazarda tutiladi. Masalan, xiroj – O'rta asrlarda aholidan, asosan dehqonlardan olinadigan asosiy soliq; daromad solig'i; ushr – daromadning o'ndan bir qismini tashkil etgan soliq; zakot – chorva va mulkdan kambag'allar uchun yiliga bir marta olinadigan soliq; suyurg'ol – shahzodalar va amirlarga toju taxt oldida ko'rsatgan katta xizmatlari uchun beriladigan yer-suv; tansuqot – kamyob, e'tiborga molik buyum, mato; podshohlar, xonlar va nufuzli kishilarga qilinadigan tortiq; cherik – qo'shin; qorovul – qo'shinning oldi va yon tomonlarida boradigan maxsus harbiy bo'linma; xalifa – Muhammad payg'ambarning o'rinbosari, O'rta asrlarda arab musulmon feodal davlatining boshlig'i; mirishkor – to'g'risi – miri shikor, podshoh va xonlarning ov qushlari va ov hayvonlarini tasarruf etuvchi mansabdor; mirob – suv taqsimoti bilan shug'ullanuvchi mansabdor; qozi –shariat asosida ish yurituvchi sudya; yorlig' – o'rta asrlarda hukmdor tarafidan beriladigan rasmiy hujjat; vaqfnoma – masjid, madrasa, xonaqoh va mozorlarga in'om etilgan yer-suv haqidagi tuzilgan maxsus hujjat va boshqa atamalar juda ko'p uchraydi. Bu va shunga o'xshash atamalar shubhasiz qimmatli tarixiy material bo'lib, ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish imkoniyatlari o'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari, ijrochilik san'ati durdonalari, jamiyatning urf-odat va marosimlari, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, tabiat va koinotga oid bilimlarni hamda manbashunoslik turlarini didaktik paradigmalarga mos ravishda mazmunli uyg'unlashtirish asosida aniqlangan.

Manbashunoslikning xalq og‘zaki adabiyoti turi nomoddiy madaniy merosning o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki shakllari, ijro san‘ati, urf-odatlar, marosimlar va bayramlar kabi shakllari bilan uzviy aloqador. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti insoniyat so‘zlashishni boshlagan davrlardan boshlab rivojlanib kelmoqda. Xalq og‘zaki ijodiyoti tarkibiga asrlar davomida ajdodlardan-avlodlarga og‘zaki – an‘anaviy tarzda o‘tib kelayotgan janrlar kiradi. Mif, afsona, rivoyat, ertak, topishmoq, masal, matal, qo‘shiq va dostonlar kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Xalq og‘zaki adabiyoti manbalari qadim zamonlardan buyon ajdodlarimiz haqida xabar beruvchi ilk manba hisoblanadi. Chunki xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari hali yozuv paydo bo‘lmagan davrlar haqida ham ma‘lumot bera oladi. Xalq tomonidan yaratilgan ertak, hikoya, topishmoq kabilar o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki an‘ana va shakllari uchun manba hisoblansa, xalq dostonlari, xalq qo‘shiqlari, laparlar ijro san‘ati uchun qimmatli birlamchi manba hisoblanadi.

Miniatyura san‘ati manbashunoslikning eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar miniatyura san‘atidan X-XIX-asrlar mobaynida asosan qo‘lyozma kitoblarni ziynatlash uchun foydalanishganini ta’kidlashadi. Miniatyura san‘atida tasvirlangan turli rasmlar orqali NMMning shakllari haqida ma‘lumotlar olish mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish texnologiyalari etnografik-lingvistik manbalarni ommalashtirish, etnofolkloristik tarixiy afsonalar genezisini xronologik, geografik, struktural tasniflash hamda miflarni turlarga bo‘lishning didaktik-natijador infratuzilmasini bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

Afsona, rivoyat, mif, ertak, topishmoq, tez aytish, maqol, matal, masal, hikmatli so‘zlar majmuasi bizning tushunchamizdagi xalq og‘zaki ijodiyoti o‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki shakllari misol bo‘la oladi. Nomoddiy madaniy merosning bu shakli odamlar so‘zlashishni boshlagan davrlar bilan chambarchas bog‘liq. Chunki aynan shu davrdan boshlab ular o‘z hissiyotlarini munosabatlarini til orqali ifodalay boshladi. Bu janrlarning paydo bo‘lishi albatta dastlabki mifologik qarashlar, diniy tasavvurlar bilan bevosita bog‘liq. Ana shunday qarashlar asosida shakllangan dastlabki janrlardan biri – bu afsonadir.

Afsonalarda voqealar muallif tilidan hikoya qilib beriladi. Unda qat’iy boshlanish va tugatilish so‘zlari yo‘q va aynan mana shu jihat bilan u ertaklardan farq qiladi. Afsonalar voqea va hodisalarni g‘ayritabiiy tasvirlashi bilan ertaklarga o‘xshab ketadi, biroq syujetning barqaror shaklga ega emasligi va qisqaligi bilan ulardan farqlanib turadi. Afsonalar g‘oyaviy-tematik yo‘nalishlariga ko‘ra, shartli ravishda sof mifologik afsonalar, tarixiy voqea va hodisalar haqida to‘qilgan afsonalarga bo‘linadi.

Tadqiqotchi M.Jo‘rayev afsona janrini mustaqil janr sifatida tadqiq etib, «samoviy afsona» tushunchasini birinchi marta termin sifatida qo‘llab, amaliyotga joriy etdi. M.Rahmonova esa o‘z tadqiqot ishida o‘zbek xalq tarixiy afsonalarining yozib olish, ommalashtirish tarixi, etnofolkloristik izlanishlarni tahlil qilgan. Shuningdek, tarixiy afsonalarning genezisi haqida fikr yuritib o‘zbek xalq tarixiy afsonalarini quyidagicha tasniflagan: xronologik tasnif; geografik tasnif; struktural tasnif; biografik tasnif; tematik tasnif.

Tadqiqotchilar ajdodlarimizning olam, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot xususidagi qadimiy fantastik tushunchalarini o'zida aks ettirgan miflarni quyidagi turlarga bo'lishgan: ibtido haqidagi miflar (olamning yaratilishi va erdagi hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar); samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar); antropogenik miflar (g'ayrioddiy xislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar haqidagi miflar, masalan, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi kabi pahlavonlar haqidagi miflar); kult miflar (muayyan e'tiqodiy ininchlar bilan bog'liq miflar, masalan, hosildorlik kulti, suv kulti, olov kulti haqidagi miflar); etnogenetik miflar (urug'-qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador miflar; masalan, 92 o'zbek urug'ining paydo bo'lishi haqidagi mif); kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar, masalan, ayamajuz, ahman-dahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar); esxatologik miflar (olamning intihosi haqidagi miflar, masalan, oxir zamon to'g'risida mif).

O'quvchilarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishning quyidagi xususiyatlari o'rganildi: har bir fanning xususiyatini hisobga olish; dars jarayonida o'quvchilar faolligiga erishish; oila-mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish.


Ta'lim tizimi vositasida qadimiy merosimizni asrab qolish, ularni qadriyat darajasiga ko'tarish uchun nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq bilimlarni dastlab oilada shakllantirish va ta'limning keyingi bosqichlarida bosqichma-bosqich davom ettirish, oila va mahallada o'zaro hamkorlikni rivojlantirishni taqozo qiladi. Xalqimizda qadimdan oila muqaddas go'sha, mahallalar qadriyatlar beshigi, maktab esa ta'lim va tarbiya maskani hisoblangan. Bu uch muqaddas tushunchalar inson hayot faoliyatining asosiy bo'g'inlari hisoblanadi. Inson dastlab oilada tug'iladi, mahalla va maktab uning bevosita keyingi faoliyat turlari bilan bog'liq xolda asta-sekin uning hayotida muhim o'rin tutuvchi faoliyat turlariga aylana boshlaydi.

Oila va oilaviy munosabatlar murakkab pedagogik jarayon bo'lib, u: bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish odatlari, an'analari, metodlarini ishlab konstruktiv vazifani; bolalarning dam olishlari, mehnat qilish va o'quv mashg'ulotlari tartibini o'rnatib, tashkilotchilik vazifasini; ota-onalar va bolalar, bolalarning o'zlari o'rtasidagi yaqinlari, qarindoshlar, qo'shnilar va shu kabilar bilan to'g'ri o'zaro munosabatlar qoidasini ishlab chiqib kommunikativ vazifalarini bajaradi. O'quvchilarning nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirishda oila-mahalla hamkorligi alohida o'rin tutadi. Nomoddiy madaniy merosni o'zlashtirishda oila-mahalla hamkorligini quyidagicha aks ettirish mumkin (1-rasmga qarang).

Dissertatsiyaning **“Tarbiya” fanini o'qitishda o'quvchilarning nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirish texnologiyasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida “Tarbiya” fanini integrativ o'qitish jarayonida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni singdirish imkoniyatlari, o'quvchilarning nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirishda elektron dastur hamda keys texnologiyasidan foydalanishi yoritilgan.

So'nggi yillarda jahon miqyosida olib borilgan tajribalar asosiy fanlarni nomoddiy madaniy merosga oid fanlar yoki mavzularga bog'lab o'rganish o'quv jarayonini yanada qiziqarli va ahamiyatli qilishi mumkinligini tasdiqlamoqda. Shuningdek, aynan nomoddiy madaniy merosga oid bilimlar va darslar o'quvchining

kundalik turmush tarzida uchraydigan vaziyatlar, muammolar umuman ijtimoiy holatlar bilan aloqadorlik yaratadi. Bu esa o‘z navbatida oila, mahalla o‘rtasida tizimli aloqalar, oilada ona va farzand, bobo-buvi va nabiralar o‘rtasidagi iliqlik munosabatlar paydo bo‘lishiga, o‘zaro aloqalarning kuchayishiga, nomoddiy madaniy merosga oid bilimlar tizimiga o‘quvchilarning qiziqishlari ortishiga va natijada nomoddiy madaniy merosni saqlovchi, kelajak avlodga etkazuvchi avlodni tarbiyalashga xizmat qilishi mumkin.



**1-rasm. O‘quvchilarning nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarini rivojlantirishda oila-mahalla hamkorligi**

“Tarbiya” fani va ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibidagi nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni integrativ o‘qitishi pedagogik tajriba-sinov jarayonida o‘z isbotini topdi. “Tarbiya” fani va “Ingliz tili”, “Adabiyot”, “Tarix” fanlari integratsiyasida o‘qitilishini ko‘rib chiqdik. Har bir fan boshqa fanlardan fanga xos xususiyatlari orqali farqlanadi. Chet tillari xususan, “Ingliz tili” fani o‘quvchilarning ziyorakligi, eslab qolish qobiliyati, tasavvurning kengayishi va dunyoqarashning shakllanishida alohida o‘rin tutsa, “Adabiyot” fanini o‘rganish orqali o‘quvchida nutiqiy qobiliyatlar, ravon so‘zlash, tushuncha hosil qilish va ifodalash, o‘z shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish kabi funksiyalarni dars jarayonida rivojlantirib borishadi. Xuddi shuningdek, “Tarix” fanlarida aniqlik tarixiy voqea va hodisalarni tarixiy faktlar bilan mustahkamlab borish va tahlil qilish imkonini beradi.

“Tarbiya” fanidagi mavzular ketma-ketligi o‘quvchilarda ona Vataniga hurmat, bag‘rikenglik, o‘z xalqiga xos qadriyatlarni tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Misol tariqasida 6-sinf “Tarbiya” fanida integrativ darslar tashkil etilishi mumkin bo‘lgan mavzularni keltiramiz.

6-sinf o'quvchilarda "Tarbiya" fanidagi "Men "Oltin qoida"" bo'yicha yashayman" (1-2-mavzular), "Tarix" fanidagi "Zardushtiylik" (1 s) mavzulari o'zaro bog'liqlikda o'qitilsa o'quvchilarda NMMning o'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari yo'nalishi bo'yicha tushunchalar rivojlanadi. "Tarbiya" fanidagi "Mening mahallam – mening faxrim" (11-12-mavzular) va "Tarix" fanidagi "Xalq qo'shiqlari" (1 s) mavzulari o'zaro aloqadorlikda darslar tashkil etilsa o'quvchilarda NMMning ijro san'atiga oid tushunchalar rivojlanishiga zamin bo'ladi. Jamiyatdagi urf-odat, marosim va bayramlar yo'nalishi yuzasidan tushunchalar "Tarbiya" fanidagi "Ona yurtim – oltin beshigim" (10-mavzu) va "Ingliz tili" fanidagi "*Uzbek and English weddings*" (1 s), "*A wedding in Fergana*" (1 s) mavzulari asosida rivojlantiriladi. An'anaviy hunarmandchilikka oid bilim va ko'nikmalar yo'nalishiga oid tushunchalar "Tarbiya" fanidagi "Mening mahallam – mening faxrim" (11-12-mavzular) va "Tarix" fanidagi "Zardushtiylik" (1 s) mavzulari asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Insonlarning tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalari yo'nalishiga oid tushunchalar esa "Tarbiya" darsligidagi "Ekologik xavflar" (31-32-mavzular), "Salomatlik – ulkan boylik" (19-20-mavzular), "Ingliz tili" fanidagi "*Can you cook plov?*" (1s) mavzulari asosida rivojlantiriladi.

O'quvchilarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishning didaktik talablari quyidagicha ishlab chiqildi: nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalar ko'lamini aniqlash; ijtimoiy-gumanitar fanlarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishning shakl va metodlarini aniqlash. Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalar ko'lamini aniqlash didaktik talabi uchun o'quvchilardan dastlabki tajriba-sinov testlari olindi. Aniqlangan bilimlar ko'lami natijalari hisobga olinib, tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi. Mazkur bilimlarni aniqlash NMMga oid tushunchalarni rivojlantirishning muhim qismi hisoblanadi. Har qanday yangi bilim undan avval aniqlangan bilimlar natijasiga tayanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlan-tirishning shakl va metodlarini aniqlash didaktik talabi uchun dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda noan'anaviy metodlardan foydalanildi. Maktab darsliklari tahlili natijalariga ko'ra nomoddiy madaniy merosga oid bilimlar "Adabiyot", "Ingliz tili", "Tarix", "Tarbiya" kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarning mavzularida mavjudligi aniqlandi. Har bir fan uchun mos keluvchi o'quvchilar faolligini oshiruvchi metodlardan foydalanib, tajriba darslari tashkil etildi va amaliyotda sinovda o'tkazildi.


Bugungi kun o'qituvchisi zimmasiga qator vazifalar qo'yilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish avvalo o'qituvchiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Ammo ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi jarayon hisoblanadi. Darsda tanlangan metodika dars samaradorligini oshirishga xizmat qilishi zarur. Shunday qilib metodika ma'lum bir fanni o'qitish va o'rganish uchun zarur bo'ladigan metodlar haqidagi ta'limot. Dars jarayonida qanday metodlardan foydalanish har bir fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bu jarayonda o'qituvchining shaxsiy bilim va tajribalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni o'quvchilar ongida rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi kasbiy fazilatlarga ega bo'lishi zarur: o'qitiladigan fan dasturi doirasida nomoddiy madaniy merosga oid bilimga ega bo'lish; darsda qo'llaniladigan noan'anaviy metodlar

mohiyatini tushunish va qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishda noan’anaviy metodlardan foydalana olish; metodikani qo‘llash jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va individual xususiyatlarini hisobga olish; bu jarayonda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga sharoit yaratish; o‘quvchilarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishda har bir o‘quvchiga alohida yondashish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, “Axborot texnologiyasi” har qanday pedagogik tizimda – ilmiy masalalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan tushunchadir. Biroq, agar ilmiy masala o‘qitish va tarbiya qilish maqsadlarini ifodalaydigan bo‘lsa, u holda axborot texnologiyasi o‘qitish va tarbiyalash yo‘llari, ularga erishish vositalarini ifodalaydi. Shuningdek, bu jarayonda ilmiy masala tuzilmasida talabalarning shakllantirilishi va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan aniqlangan sifatlari muayyan shart-sharoitlarda o‘qitish maqsadlari sifatida ishtirok etadi, u esa umumiy holda ta‘lim mazmunining o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi – o‘quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan holatlardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta‘lim tizimida ham o‘z aksini topishi zarur.

Nomoddiy madaniy merosga oid bilimlarni rivojlantirishda noan’anaviy metodlardan foydalanish dars sifatining oshishiga, o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga va egallashi lozim bo‘lgan yangi bilimlarni osonlik bilan o‘zlashtirishiga imkon beradi. Dars jarayonida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishda noan’anaviy metodlardan foydalanish dars jarayonini samarali tashkil qilishga xizmat qilishi lozim. Dars jarayonida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirish metodikasi quyidagilarda o‘z ifodasini topadi: o‘quv fanlari tarkibida mavjud bo‘lgan nomoddiy madaniy merosga oid bilimlar uchun ajratilgan soatlarni aniqlab olish; aniqlangan soatlar yuzasidan tegishli darslikdagi mavzularni chuqur tahlil qilish; darsda an’anaviy va noan’anaviy metodlardan keng foydalanish; dars mazmuni va tuzilishi dars rejasiga mos olib borilishi; dars rejasining optimallashtirishini ta‘minlash; nomoddiy madaniy meros mazmunidagi ta‘lim vositalari bilan o‘quvchi bilish imkoniyatlari o‘zaro bog‘liqligiga erishish; mazkur jarayonda o‘quvchining faolligiga erishish; nomoddiy madaniy meros yuzasidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish; Dars jarayonida o‘quvchilar bilimini xolisona baholash ko‘nikmasi; nomoddiy madaniy merosga oid bilimlarni rivojlantirishda samarali natijaga erishish usullari ustida ishlash.

